



**FARG'ONA -TOSHKENT MAQOM YO'LLARINING SHAKLLANISH
ILDIZLARI**

**КОРНИ ФОРМИРОВАНИЯ ФЕРГАНО-ТАШКЕНТСКИХ
МАКОМНЫХ ПУТЕЙ**

**THE ROOTS OF THE FORMATION OF THE FERGANA-TASHKENT
MAQOM PATHS**

Sultanbek Mannopov

Farg'ona davlat universiteti Musiqa ta'limi va san'at kafedrası professori.

Masharipova Rayxonoy Rayimovna

Farg'ona davlat universiteti Musiqa ta'limi va san'at kafedrası magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek milliy musiqiy merosining muhom tarkibiy qismi bo'lgan Farg'ona -Toshkent maqom yo'llarining shakllanish jarayoni, tarixiy ildizlari va xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda maqom san'atining xalqona ildizlari, xalq kuy-qo'shiqlari, marosim an'analari hamda Sharq musiqiy nazariyotchilari Farobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviylarning ilmiy qarashlari bilan bog'liqligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *maqom san'ati, Farg'ona -Toshkent maqom yo'llari, xalq kuy-qo'shiqlari, Shaqr musiqasi, musiqiy meros, lirizm, an'ana.*

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс формирования, исторические корни и особенности Фергано-Ташкентских макомных путей, являющихся важной частью узбекского национального музыкального наследия. Освещаются народные истоки искусства макома, его связь с народными песнями, обрядовыми традициями, а также с теоретическими трудами



выдающихся восточных мыслителей - Аль-Фараби, Ибн Сины и Сафи ад-Дина аль-Урмауи.

Ключевые слова: искусство макома, пути макома Фергана-Ташкент, народные песни, восточная музыка, музыкальное наследие, лиризм, традиции

Annotation

This article analyzes the process of formation, historical roots, and specific features of the Fergana-Tashkent maqam paths, which constitute an important part of the Uzbek national musical heritage. The study highlights the folk origins of maqam art, its connection with traditional songs, ceremonial practices, and the theoretical foundations established by prominent Eastern scholars such as Al-Farabi, Avicenna, and Safi al-Din al-Urmawi.

Keywords: maqom art, maqom ways Fergana-Tashkent, folk songs, oriental music, musical heritage, lyrics, traditions

Maqom san'ati - o'zbek xalqining eng qadimiy va bebaho madaniy meroslaridan biridir. U xalqimizning ruhiy-ma'naviy dunyosi, estetik qarashlari va badiiy tafakkurining yuksak namunasidir. Har bir hududiy maqom yo'li o'ziga xos uslub va ohanglarga ega bo'lib, xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va an'anaviy marosimlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Shu jihatdan Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari o'zining lirizmi, nafisligi va xalqona ohanglari bilan ajralib turadi. Ularning shakllanish ildizlarini o'rganish nafaqat musiqashunoslik uchun, balki xalq madaniy merosini chuqur anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda alohida muhim o'rin egallaydi. Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofizlar va sozandalarning mashaqqati, mehnati va ijodiy tafakkur bilan sayqallanib kelayotgan ushbu san'at turi nafaqat yurtimizda sharq mamlakatlarida balki butun dunyo miqyosida katta



shuxrat va e'tibor qozongan. Bunga yorqin misol qilib 2018-yildan boshlab Shahrizabz shahrida har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan "Maqom san'ati" anjumanini, maqom san'atini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar, bir qancha sohada faol ijod qilayotgan san'atkorlarga berilayotgan mukofotlarni olsak bo'ladi.

Tarixiy manbalar va shakllanish jarayoni Farg'ona vodiysi qadimdan Sharq musiqa madaniyatining markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu hududda yashagan xalqning kuy-qo'shiqlari, baxshichilik an'analari va marosim ashulalari maqom san'ati rivojiga zamin yaratdi. IX-XII asrlarda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Safiuddin al-Urmawiy larning musiqiy nazariyalari o'z davrida nazariy asos bo'lib, Farg'ona-Toshkent maqom maktabining shakllanishiga ilmiy zamin yaratdi. O'rta Osiyoning vodiylari va shaharlarida shashmaqom sho'balari ta'siri ostida juda ko'p kuy va ashulla yo'llari paydo bo'lgan. Farg'ona vodiysida XIX-XX asrlarda o'zbek mumtoz musiqa merosida yetakchi o'rinlarni egallagan turkumli va turkumsiz ashulla va cholg'u yo'llari keng tarqalgan. Bu Farg'ona -Toshkent maqomlari yoki Farg'ona -Toshkent maqom yo'llari deb nom olgan. Ular mahalliy uslub an'analari bilan sug'orilgan. Ular shashmaqom tarkibidagi bir qator sho'ba (sarahbor savt) shahobcha (qashqarcha soqiynomalar) va turkumlarga yaqindir. Yani ularning kuy bo'laklari shakli usullari o'xshash. Faqat Farg'ona -Toshkent maqomlari va maqom yo'llari-ikki, uch, besh va yeti qismli turkumlarni tashkil qiladi. Ularning har biri ma'lum shaxobchalarga ega va bir-biri bilan sonlar bilan ajratiladi. Yirik ashulla turkumlariga quyidagilar kiradi: Bayot I-II-III-IV-V, Chorgoh I-II-III-IV-V, Dugoh husayni I-II-III-IV-V-VI-VII, Gulyori shaxnoz. Yirik maqom cholg'u yo'llari orasida Chorgoh I-II-III-IV-V, Miskin I-II-III-IV-V-VI-VII, Nasrullovi I-II-III, Navro'zi ajam taronalari I-II-III, Hojiniyoz I-II kabi yakka soz va ansambl ijrosidagi asarlar kiradi. Bundan tashqari yetuk sozanda va bastakorlar tomonidan Farg'ona vodiysiga hos bo'lgan ashulla, katta ashulla va cholg'u yo'llari asosida



shashmaqomning shoba va shaxobchalariga mos ravishda bo‘lgan alohida ashulla va cholg‘u asarlari bor. Bularga: Yovvoyi chorgoh, Yovvoyi ushoq, Yovvoyi tanovor ashulla va cholg‘u yo‘li, Cho‘li iroq, Toshkent irog‘, Qoqon irog‘i, Samarqand yoki Hoji Abdullaziz ushog‘I, Toshkent yoki Mullato‘ychi ushog‘I, Hojand yoki Sadirxon hofiz ushog‘i kabilar kiradi. Farg‘ona -Toshkent musiqa uslubida xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo‘shiq, ashulla aytim janrlari bilan bir qatorda dostonchilik janri ham keng rivojlangan. Bu janrda bolalar folklyori, xotin qizlarning qo‘shiqchilik ijodi va ashullachilik, yallachilik cholg‘u kuylari o‘rin olgan. Farg‘ona -Toshkent musiqa uslubida Xaydar Ota, Baychiyev, Jumaboy baxshi, Razzoq baxshi, Qozoqboyev Qobilvoy baxshilar “Alpomish”, “Rustamxon”, “Avazxon”, “Shirin va shakar” dostonlarini ijro etishgan.

Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘lining xususiyatlari: Farg‘ona-Toshkent maqomlari boshqa hudud maqomlariga nisbatan yengilroq va xalqona ohanglarga boyligi bilan ajralib turadi. Ularning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: kuy ohanglari lirizm va nafislik bilan ajralib turadi; ashulalarda samimiyat va xalqona ohangdorlik kuchli seziladi; ijro uslubida ravonlik, yengillik va shaffoflik ustuvorlik qiladi. Mazkur maqom yo‘llarida xalq kuy-qo‘shiqlari bilan professional maqom elementlari uyg‘unlashgan bo‘lib, bu ularning keng omma tomonidan tez qabul qilinishiga sabab bo‘lgan. Xalq an‘analari va musiqiy merosning ta‘siri Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining shakllanishida xalqning turmush tarzi, mehnat qo‘shiqlari, mavsumiy qo‘shiqlar, muhabbat va tabiat tasviriga bag‘ishlangan lirik ashulalar asosiy manba sifatida xizmat qilgan. Shu bois bu maqom yo‘llarida xalqona ruh, milliylik va samimiylilik kuchli ifoda topgan. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari-O‘zbek mumtoz musiqa merosining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, ular shashmaqom bilan bir qatorda shakllanib alohida an‘anaga aylangan. Farg‘ona vodiysi musiqasi xalq qo‘shiqlari, lapar va yallalar bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois maqom yo‘llarida xalqona ohang, o‘ynoqilik, shiradorlik seziladi.



Toshkent esa savdo-madaniy markaz bo'lgani uchun turli musiqa oqimlari bilan boyigan. Shuning uchun bu yo'llarda tantanavorlik, keng nafasli kuylar uchraydi.

XIX-asr oxiri XX asr boshlarida ustoz san'atkorlar tomonidan "Farg'ona - Toshkent maqom yo'llari" degan atama shakllangan. Farg'ona -Toshkent maqom yo'llari xalq og'zaki musiqasi va shashmaqom an'alarining qo'shilishi natijasida shakllangan. Ular o'zbek milliy musiqa merosining bebaho qismini tashkil etib, kuylarida lirizm, xalqona nafislik va keng ashulla usullari mujassamdir.

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari o'zbek musiqiy madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning ildizlari qadimiy xalq qo'shiqlari, marosim an'analari hamda Sharq musiqiy nazariyalariga borib taqaladi. Mazkur maqom yo'llari o'zining lirizmi, nafisligi va xalqona ruhiyati bilan ajralib turadi. Bugungi kunda bu boy merosni o'rganish, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Forobiy A.N. Musiqi ilmi haqida kitob. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1993.
2. Ibn Sino A.A. Kitob ush-shifo: Musiqi risolasi. -Toshkent: Fan, 1980.
3. Rajabov I. O'zbek xalq musiqi merosi. -Toshkent: Fan, 1972.
4. Yunusov R. Maqomlar va ularning xususiyatlari. -Toshkent: O'zbekiston, 1990.
5. Qodirov F. Farg'ona-Yoshkent maqom yo'llari. - Toshkent: San'at, 2001.
6. Karimov F. Sharq musiqasi tarixi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
7. O'zbekiston Respublikasi Maqom ansambli materiallari. - Toshkent, 2018